



## XIZMATLAR SOHASI TARKIBIDA TIBBIY XIZMATLARNING TURI VA ULARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLILI

Axmedov Zafarjon A'zamovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Mualif maqolada xizmatlar sohasi tarkibida tibbiy xizmatlarning tiri va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini tizimga keltirgan, asosli dalillardan kelib chiqqan holda ilmiy tahlilini bayon etgan.

**Kalit so'zlar:** davlat, xususiy, sog'liqni saqlash, xizmat, tibbiy xizmat, xarajat, daromad, mehnat unumдорлиги, rentabellik, samaradorlik, bemor, davolanuvchi, pulli xizmat, bemorxona, davolanish maskani.

**Аннотация:** В статье автор систематизировал услуги здравоохранения и показатели их эффективности в сфере услуг, а также представил научный анализ основанный на достоверных данных.

**Ключевые слова:** государственное, частное, здравоохранение, услуга, медицинская услуга, стоимость, доход, производительность труда, рентабельность, эффективность, пациент, платная услуга, больница, лечебное учреждение.

**Abstract:** In the article, the author systematized the existence of medical services and their efficiency indicators in the service sector, and presented a scientific analysis based on valid evidence.

**Key words:** public, private, health care, service, medical service, cost, income, labor productivity, profitability, efficiency, patient, paid service, hospital, place of treatment.



**Kirish:** Sog‘liqni saqlash vazirligining bayonotiga ko‘ra, O‘zbekiston davlat dasturiga binoan tibbiyot sohasi endilikda “iste’molchi soha emas, balki sarmoyalalar sohasi sifatida” ko‘riladi. Islohotlar natijasida uch xil ko‘rinishdagi tibbiyot maskanlari yuzaga keldi. Bular davlat tomonidan ta’minlanib, to‘la bepul xizmat ko‘rsatishi lozim bo‘lgan tizim, davlat va boshqa manbalardan mablag‘ oluvchi hamda bosqichma-bosqich pulli xizmatga o‘tuvchi tizim. Uchinchisi esa to‘la pulli xizmat ko‘rsatuvchi xususiy sektordir.

Sog‘liqni saqlash tizimidan yaxshi xabardor bir kuzatuvchining aytishicha, O‘zbekiston tibbiyoti yuz tutgan islohotlar ayrim sobiq Sho‘ro respublikalari, jumladan, qo‘sni mamlakatlar orasida ham anchayin ilg‘or bo‘lib, G’arbiy Ovro‘pa, xususan, Buyuk Britaniya tajribasiga asoslangan. Biroq mavjud sharoit tizimni Ovro‘padagidek samarali ishlashiga xalaqit beradi.“Korruptsiya, ma’muriy buyruqbozlik va byurokratiya bu islohotlarning og‘ir kechishi, malakali mutaxassislarning sohani tashlab ketishi va yoki chet ellarga ish qidirib ketishiga sabab bo‘ldi. Tibbiyot tizimida avj olgan poraxo‘rlikning og‘irligi esa, yana aylanib oddiy odamlar yelkasiga tushmoqda,” deydi u. Uning aytishicha, sobiq Sho‘roning bepul tibbiyot tizimidan butkul yangi tizimga o‘tish ko‘pchilik uchun og‘ir kechgan. 1990 yillar o‘rtasida o‘sha paytdagi sobiq vazir britaniyalik tibbiyot ekspertlari bilan uchrashuvda o‘zları qo‘l urgan islohotlar haqida hazil aralash shunday degandi: “Biz qisqa vaqt ichida tizimda shunday o‘zgarishlar qilib tashladikki, bu sohada nimalar yuz bergenini aniqlash uchun bizdan keyingilarga o‘n yillab vaqt kerak bo‘ladi”.


Shu o‘rinda ayrim raqamlar: Vazirlik ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda har o‘n ming kishiga 26 nafar shifokor va umuman 100 nafar tibbiyot xodimi to‘g‘ri keladi. Shifokorlarning jami soni 71 ming va mamlakatda 890 ta kasalxona mavjud.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili:** Xizmatlar sohasi tarkibida tibbiy xizmatlarning o‘rni va ularning samaradorligini oshirish muammolari iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilgan. Xususan, Yu.F.Volkov, M.Q.Pardayev, R.Atabayev, A.E.Saak, M.V.Yakimenko, E.S.Fayziyev, V.G.Fedsov, V.S.Bogolyubov,



V.P.Orlovskaya, L.P.Shamatko rahbarligidagi bir guruh olimlar bemorxonalar va davolanish maskanlari biznesi iqtisodiyotiga bag‘ishlab darsliklar, o‘quv qo‘llanma va boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni nashrdan chiqarishga muvaffaq bo‘lganlar. Ammo ushbu asarlarda tibbiy xo‘jalik samaradorligining nazariy masalalari va uni ifodalovchi ko‘rsatkichlar bir tizimga keltirilgan holda ifoda etilmagan.

**Tadqiqot va natijalar:** Tibbiy xizmatlar sohasida bir qancha xizmatlar ko‘rsatiladi. Ularni yirik ikki guruhga bo‘lish mumkin: davlat tibbiy bepul va xususiy tibbiy pullik xizmatlari. Davlat tibbiy bepul xizmatlari ham bir qancha yo‘nalishlarga ega. Ulardan biri bemorlarga davlat mehmonlarni joylashtirish va vaqtincha yashashini ta’minalash bilan bog‘liq xizmatlardir. Bular tarkibiga mehmonxona xo‘jaligi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar ham kiradi. Ularning bir-biri bilan bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).



**1-rasm. Tibbiy xizmatlar sohasida aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarning turlari**



Tibbiy xizmatlar sohasida o‘z navbatida yana bir qancha guruhlarga bo‘linadi. Bular tibbiy xo‘jalik xizmatlari, transport xizmatlari, bundan tashqari tibbiy xizmatlar tarkibiga hozirgi paytda bemorlarga ertalabki nonushtani tashkil qilish xizmatlari kiritilgan va ularning narxi shifoxonaga joylashtirish bahosiga qo‘shiladi.

Tibbiy xizmatlar sohasida band bo‘lgan xodimlarning asosiy qismi shifoxonalarda va klinikalarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, tibbiy xizmatlar sohasida band bo‘lgan barcha xodimlar tarkibida shifoxonalarda va klinikalarda band bo‘lgan va yashash bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatuvchi xodimlarning ulushi 90 foizni tashkil qiladi. Mos ravishda tibbiy xizmatlarning ham 90 foizdan ortiqrog‘i shu soha ulushiga to‘g‘ri keladi.

Ko‘rinib turibdiki, tibbiy xizmatlar sohasida katta ahamiyatga ega. Bemorlarning asosiy ta’surot manbai tibbiyot obyektlarida shifo topish , ammo hudud haqidagi umumiy xulosasida xususiy tibbiy xizmatlarining ahamiyati katta. Shuning uchun xususiy tibbiy xizmatlariga faqatgina xizmatlar emas, xalqaro ahamiyatga molik tibbiy xizmatlar sifatida qaralsa maqsadgga muvofiq bo‘ladi.

Tibbiy xizmatlar sohasni rivojlanishida alohida ahamiyatga ega turi, bemorlarga ko‘rsatiladigan davlat va xususiy tibbiy xizmatlari hisoblanadi. Bu sohadagi ikkita turi ko‘rsatkich tibbiy xizmatlarning sifati, raqobatbardoshligni ta’minlovchi asosiy omillar bo‘lib, shu ikki jihatni ta’surotning boyishiga va shakllanishiga olib keladi.

Hozirgi paytda zamonaviy tibbiy xizmatlarni transport xizmatisiz tasavvur qilish qiyin. Ularning barcha turlaridan, tibbiyot subyektlari foydanaib kelmoqdalar. Ular avtomobil, temir yo‘l, havo, suv kabi transport vositalaridir. Ular bemorlarni yashash joyidan davolanish obyekti bor joyga va qayta manzillarga yetkazishda xizmat qiladilar. Bularning qulayligi, xavfsizligi turistlar uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi sharoitda xususiy tibbiy firmalarning bemorlar uchun mo‘ljallangan maxsus transport vositalari mavjud. Bu turistlar uchun ham xususiy tibbiy firmalar uchun ham qulaydir.

Bemorlarning davolanishi bilan bиргаликда dam olishini turli ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil qilish ham tibbiy xizmatlarning bir qismi bo‘lib hisoblanadi. Buning



uchun bemorxonaga joylashgan joyda bog‘lar (parklar), muzey, teatr, sirk, kutubxona, suv havzalari, sport zallari kabi inshoatlarning yaqin joylashgan yoki ularning bir qismi bevosita davolanish maskanlarining o‘zlarida bo‘lishini taqozo qiladi. Bunga yondoshuv turli bo‘lishi mumkin. Bemorlarning hohishiga binoan bir qismi uchun tashkil qilinishi yoki turistik marshrutlarga kiritilgan bo‘lishi lozim.

Davolanish maskanlariga joylashgan bemorlarning har biridan hamisha takliflarni oladigan anketalar ishlab chiqilib, ularga manzur bo‘lgan jihatlarini va bemorxonalardagi kamchiliklar bo‘yicha fikrlarini ham olish lozim. Ularning fikrlaridan foydalangan holda bemorxonalar va davolanish maskanlari faoliyatini takomillashtirib borish va shu orqali samaradorligini oshirib borish maqsadga muvofiq.

Mazkur masalalar tibbiy xo‘jaliklarining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Chunki iqtisodiyotning erkinlashib borishi, islohotlarning chuqurlashuvi, turli inqiroz va iqtisodiy beqarorliklarning sodir bo‘lib turishi, raqobatning mavjudligi har bir xo‘jalik yurituvchi subyektlar, xususan, bemorxonalar va davolanish maskanlarining ham faoliyati samaradorligini oshirish zaruratini tug‘diradi. Chunki samaradorlik ta’milanmagan joyda, foya ko‘rsatkichi past bo‘ladi, bu holat mulkiy (iqtisodiy) o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatib korxonalarni bankrot xolatga olib keladi. Shu tufayli barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini oshirishga erishish lozim.

Biz tibbiy xo‘jaligi samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq nazariy va amaliy qarashlarni tahlil qilib va o‘rganib, ikki nuqtai nazardan qarash maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldik. **Birinchisi, samaradorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlarga uning klassik ta’rifiga va umum metodologik asosiga tayangan holda yondoshish bo‘lsa, ikkinchidan, tibbiy xo‘jalikning xizmat ko‘rsatuvchi subyekt sifatida o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondoshish lozimlidir.** Bulardan tashqari tibbiy xo‘jalik samaradorligiga bir tomonidan bemorlar



(aksariyat hollarda bemorlar) va ikkinchi tomondan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar nuqtai nazaridan qarash maqsadga muvofiqdir.

Bemorlarning (davolanuvchilarning) nuqtai nazaridan, tibbiy xo‘jalik samaradorligini baholashda quyidagi yo‘nalishlar inobatga olinadi:

- bemorlarni joylashtirish;
- ularni ovqatlantirish;
- bemorlarga tibbiy xizmatlarini ko‘rsatish;
- mehmonlarga transport xizmatlarini ko‘rsatish;
- bemorlarga davolanishlari va dam olishlari uchun zarur bo‘lgan turli madaniy xizmatlarni ko‘rsatish;
- bemorlarga maishiy xizmatlarni ko‘rsatish.

Barcha hollarda ularning xavfsizligini ta’minlash kafolatlangan bo‘lishi lozimdir.


Bunday xizmatlarni yuqori saviyada ko‘rsatish va bemorlarning talablarini to‘liq qondirish uchun tibbiyot xizmatchilari professional malakaga ega bo‘lishlari lozim. Hozirgi sharoitda, ushbu xodimlardan ko‘rsatilgan xizmat turlarini a’lo darajada bajarish, xushmuomalalik, ziyrak va hushyor bo‘lishligini, bir qancha xorijiy tillarni ham bilish lozimligini talab qiladi.

Tibbiy xo‘jalikda samaradorlikni baholashning ikkinchi yo‘nalish, xususiy shifoxona egasi yoki shu xo‘jalik yurituvchi subyekt sohaga qo‘ygan investisiyasidan yetarli darajada foyda olishi, mavjud moddiy-texnika asoslaridan samarali foydalanishi, tibbiy xodimlarning yuqori mehnat unumdarligiga erishmog‘i va xarajatlardan ham samarali foydalanishi lozim. Bizning fikrimizcha tibbiy xo‘jalikda samaradorlikni baholash uchun, ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish mumkin bo‘ladi. Bunday ko‘rsatkichlar tizimini to‘rtta guruhga bo‘lishni tavsiya qilamiz:

- tibbiy xo‘jaligiga qo‘yilgan aktivlar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- tibbiy xo‘jaligi moddiy-texnika asoslari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;




- tibbiy xo'jalikda mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
  - tibbiy xo'jalik xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
- Buni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin (2-rasm).



**2-rasm. Tibbiy xizmatlar samaradorligini xo'jalik yurituvchi subyektlar nuqtai nazaridan ifodalovchi ko'rsatkichlar.**

Har bir guruh ko'rsatkichlar o'z navbatida bir qancha guruhlarni qamrab oladi. Masalan, ulardan biri tibbiy xo'jaligiga qo'yilgan aktivlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Bu guruh ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- uzoq muddatli aktivlar rentabelligi;
- joriy aktivlar rentabelligi;
- umumiy investisiyaning qoplanish koeffisiyenti. Bularning chizmasi quyidagicha ifodalanadi (3-rasm).



### 3-rasm. Tibbiy xo'jalikka qo'yilgan aktivlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Tibbiy xo'jaligi moddiy-texnika asoslari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlarni qamrab oladi.

Tibbiy xo'jalik xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu guruh ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritishni tavsiya qilinadi:

- bitta joyga to'g'ri keladigan o'rtacha tushum;
- tibbiy xo'jaligi koyka/kunlaridan foydalanish koeffisiyenti;
- tibbiy xo'jaligi koyka/kunlari samaradorligi koeffisiyenti.


Ushbu ko'rsatkichlar guruhi quyidagi chizmada o'z aksini topgan (4-rasm):

Tibbiy xo'jaligida mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida o'z o'rniga ega. Mazkur guruh ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:



**4-rasm. Tibbiy xo'jalik moddiy-texnika asoslari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.**

- bitta xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha tushum (tibbiy xodimlarining mehnat unumdarligi, qiymatda);
- bitta tibbiy xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha koyka/kunlari (tibbiy xodimlarining mehnat unumdarligi, natural ko‘rinishda). Bularning chizmasi quyidagicha ifodalanishi mumkin (5-rasm).




**5-rasm. Tibbiy xo'jalikda mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.**



Tibbiy xo'jalikda yana bir muhim ko'rsatkichlardan biri, ularga joriy yilda sarflangan xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Ushbu guruh ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritishni tavsiya qilamiz:

- joriy yilda qilingan xarajatlar rentabelligi;
- har bir foydalanilgan koyka/kunlarning tannarxi.

Bularning chizmasini quyidagicha ifodalashni tavsiya qilamiz (6-rasm).



#### 6-rasm. Tibbiy xo'jaligi xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

**Xulosa:** Tadqiqot jarayonida ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash, ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash orqali har birining yaxshilanishi uchun ichki imkoniyatlarni axtarib topish yo'llarini ko'rsatib berish lozim bo'ladi. Bu masala tibbiy xo'jaliklari va uning o'quv jarayoni ham muhim. Chunki, tibbiy xo'jaliklarda samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimli tarzda ishlab chiqilmagan va mos ravishda amaliyotda qo'llanilmasdan kelinayotgan edi. Shu tufayli biz ishlab chiqqan mazkur tavsiya nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga molik masalalardan biridir.



## Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi yangi tahriri, qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi , 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori, 07.12.2018 yil, PQ-4055-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O'zbekiston -2030 ” to‘g‘risidagi Farmoni, 11.09.2023 yil, PQ-158-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori, 06.05.2019 yil, PQ-4310-son.